



# TARAKKIYAT TADQIQOTLARI | ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ DEVELOPMENT STUDIES

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНЛАР | НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ КОНФЕРЕНЦИИ  
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCES

Volume II, Issue-19, (July) 2024

Journal homepage: <https://inashr.uz/index.php/rid>

**DADAJONOV Tursunboy Abdusamatovich**

*University of business and science*

*o'qituvchisi*

## QO'QON VILOYATLAR BOSHQARUVIDAGI STRATALAR: BEKLIK VA SARKORLIKLARNING IJTIMOYIY HAYOTDAGI O'RNI

### ANNOTATSIYA

Ilmiy maqolada o'rganilayotgan mavzu Qo'qon xonligi davlatchiligi tizimining ijtimoiy – siyosiy qatlamlari tarixi bo'lsa – da, voqealarning tadrijiy rivojini qamrab olish va aks ettirish maqsadida Qo'qon xonligining tashkil topishi masalalariga qisqacha to'xtalib o'tishni lozim topdik.

**Kalit so'zlar:** «Tarixi Turkiston», Qo'qon va uning atrofi, Marg'ilon, Shahrixon, Andijon, Namangan, jarchi (boshi), shotir, zinbardor, jilovdorlar.

XIX asrda Qo'qon xonligi manbalarda bekklik, ba'zan viloyat va sarkorlik sifatida tilga olingan ma'muriy-hududiy qismlarga bo'lingan va ularni xon tomonidan tayinlanadigan mos ravishda beklar, hokimlar va sarkorlar boshqargan. Ayrim manbalarda (tadqiqotchi olim A. Kun) xonlikdagi 15 ta bekklikning nomi keltiriladi. Bular: Qo'qon va uning atrofi, Marg'ilon, Shahrixon, Andijon, Namangan, So'x, Mahram, Buloqboshi, Aravon, Baliqchi, Chortoq, Navkat, Koson, Chust va Bobo darxon. Boshqa manbalarda Asaka, Marg'ilon, Baliqchi, O'sh, So'x, Koson va O'zgan sarkorlik sifatida ham tilga olingan [1].

Ushbu ma'lumotni bir qancha tarixchilar o'zlarining tadqiqotlarida tasdiqlasalar ba'zi bir tadqiqotlarda esa xonlikning 17 bekklikka bo'linib boshqarilganiga to'g'risida ham ma'lumotlar keltiradi. Bu haqida tadqiqotchi J.Yakobjanov o'zining tadqiqotlarida bir qator manbalar asosida xulosalar bergan Sh.Mahmudovga tayanadi [2].

Hokimlar va hududiy bo'linma boshliqlari xon oilasi a'zolari, unga yaqin guruhlar, yuqori tabaqa vakillari va yetakchi qabilalar sardorlari orasidan tayinlangan. Jumladan, Xudoyorxon davrida yettita bekklik xonning o'g'illari va yaqin qarindoshlari tomonidan boshqarilgan. O'z navbatida hokimlar viloyat hududlarini o'zining farzandlari va qarindoshlariga bo'lib berganlar [3].

Xonlikdagi mahalliy boshqaruv apparati viloyatlar markazida joylashgan. Mahalliy boshqaruv tizimi ham markaziy boshqaruv tizimi singari ijro organi bo'lib, oliy hukmdor nomidan berilgan, mamlakatning ichki va tashqi holatini mustahkamlashga qaratilgan topshiriqlarni bajarardi. Jumladan, u viloyatlardagi aholining turmush tarzini bir maromda ushlab turish, ularning huquq va majburiyatlari ustidan nazoratni amalga oshirish, harbiy kuchlarni safarbar etish, soliqlarni to'plash, davlat bilan aholi o'rtasidagi munosabatlarni amalga oshiruvchi organ sifatida viloyatlarda ijtimoiy himoya siyosatini olib borishga mas'ul ekanligi Qo'qonshunos olim Sh.Maxmudovning tadqiqotlarida aks ettiriladi. Shuningdek, olimning Qo'qon xonligi mahalliy boshqaruv tizimida birinchi mansabdor shaxs, ya'ni viloyat boshlig'i kimligini aniqlab olish maqsadida T.Beysembiev, V.Ploskix, o'zbek olimlaridan A.P.Qayumov va H.Ziyoevlarning ilmiy tadqiqotlariga e'tibor qaratib ularning fikrlarini bir joyga jamlaydi va xulosalaydi. Masalan, V.Ploskix viloyatlarni «...xonning gumashtalari bo'lgan qushbegi va hokimlar boshqargan»ligi, A.P.Qayumov o'z tadqiqotida xonlikda «viloyatlarni hokimlar boshqarishi», T.Beysembiev esa xonlikdagi viloyatlarni hokimlar yoki voliylar boshqargan degan fikrni bildirib, «ayrim hollarda markaziy boshqaruv tizimida muhim o'rin tutgan amaldorlar – otaliq, qushbegi, devonbegi, parvonachi, xazinachi va dodxoh mansabidagilar

ham xonlikdagi ma'muriy hududiy birlik bo'lgan viloyatlarni boshqarishi mumkin» ekanligini qayd etadi [4].

Demak, tadqiqotchi olimning ilmiy tahlillariga tayanib ma'lum bir to'xtamga kelish mumkinki, xon tomonidan tayinlangan saroy amaldori joylarda (viloyat, sarkorliklar va xonlikning eng chekka hududigacha bo'lgan yerlar, ya'ni mahalliy boshqaruvi) xonning nomidan ish yuritish vakolatiga ega bo'lgan.

Ba'zi beklik yoki viloyatlar xon tomonidan kuchli davlat arboblari yoki mahalliy kuchlarning boshliqlariga ular bilan murosa qilish maqsadida berilgan. Jumladan, kuchli guruh vakili va qabila sardori sifatida Rajab qo'shbegi, Muhammad Sharif otaliqning Toshkentga, yuzlar qabilasi vakillarining Xo'jand va O'ratepaga hokim etib tayinlanganligi buning dalilidir [5]. Bu voqea Umarxon (1810-1822) hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Umarxon Toshkent va Chimkent qayta bo'ysundirib, Rajab qo'shbegi Badaxshiyini (1810-1816 yillarda) Toshkentga hokim etib tayinlaydi. 1816 yilda Rajab qo'shbegi [6] boshchiligidagi qo'shin Turkistonni zabt etadi. Turkistonning bosib olinishi deyarli Sirdaryoning Orol dengiziga quyilish joyigacha bo'lgan qozoq cho'llarining Qo'qon xonligi qo'lga o'tishiga olib keldi. Bosib olingan yerlar Dashti Qipchoq hududlari bilan birgalikda Toshkent viloyati tarkibiga kiritildi.

T. Xudoyqulov o'z tadqiqotlarida Muhammad Hakimxonning Muntaxab ut-tavorix asariga tayanar ekan, Rajab qo'shbegi tez orada Umarxonga qarshi harakatlarda ayblanib poytaxtga chaqiriladi. Yo'lda Sirdaryoga cho'ktirib, o'ldiriladi. Uning bahodirboshisi - Lashkar beklarbegi ismi bilan mashhur bo'lgan G'ulomshoh Chatroriy (yoki Chatroliy) 1816-1819/20 yillarda Toshkentga hokim etib tayinlandi. U Olimxonning harbiy boshliqlaridan bo'lib, Umarxonga taxtni egallashida yaqindan yordam bergan edi. Umarxon unga lashkar beklarbegi, devonbegi va qo'shbegi unvonlarini bergan bo'lsada, barcha manbalarda Lashkar beklarbegi nomi bilan tilga olinadi [7].

Shuningdek, XIX asrda yozilgan Qo'qon xonligi tarixiga oid asarlardan Mirzo Olim Mushrifning "Ansob us-salotin va tavorix ul-havotin" asrida xonlikdagi mahalliy boshqaruv tizimi tepasida turgan viloyat boshliqlarini hokim deb ataydi. Asarda keltirilishicha Qo'qon xoni SHERALIXON Marg'ilon viloyatiga yangi hukmdor tayinlar ekan: "Arkoni davlat bilittifoq maslahat qilib, Yusuf mingboshini hokim qildilar" – deyiladi [8]. Yoki "Anjum at-tavorix" asarida Eron shohi Nodirshoh Buxorodan qaytganida Qo'qon xoni Abdulkarimxon ham Xo'janddan Qo'qon tomonga, ukasi Shodibek ham akasi ruxsati bilan Marg'ilon viloyatiga qaytib, hukumat ishlarini yurgizishini davom ettiradi. Bir kuni Shodibek ov qilishga chiqsa ov mahal unga suyoq bo'ladi va Shodibek vafot etib o'rniga o'g'li Sulaymonbek hokim etib tayinlanadi. Bu haqida asarda keltiriladi: "bir xotini bo'lgan, o'g'lining onasi Shamsunniso oyim. Sulaymonbekni marhum otasi o'rniga Marg'inonda hokim tayinlab, xon dorussaltanatga qaytdi" [9].

Shunday ekan manbalardagi bu kabi mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish, taqqoslash, tadqiqotlarni bir-biriga solishtirish orqali bek, hokim, sarkor va shu kabi mahalliy boshqaruvga oid mansablardan xulosa qilish mumkinki, ular ichida eng yuqori lavozim hokim bu - viloyat boshlig'i bo'lgan. Unga xon tomonidan ma'lum bir katta vakolatlar berilgan. Shuningdek, masalaning ikkinchi tomoniga ham aniqlik kiritadigan bo'lsak, viloyat hokimligiga "da'vogar"lar asosan devonbegi, qo'shbegi, parvonachi kabi saroyning nufuzli lavozim egalari va hokimlikka kelgunicha markaziy boshqaruvda xonning ishonchini qozongan, mas'uliyatli va berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajargan sadoqatli shaxs bo'lishi ham kerak ekan.

Yana shuni alohida ta'kidlab o'tadigan bo'lsak, tadqiqotchi Sh.Mahmudovning fikricha markaziy hokimiyatda biror bir mansabni egallagan amaldorni mahalliy boshqaruv tizimiga rahbar etib yuborish tajribasi boshqa O'rta Osiyo xonliklarida ham qo'llanilgan. Jumladan, Buxoro amirligida, Muhammad Ali Boljuvoniyning «Tarixi Nofeyi» asarida qayd etilishicha, agarda biror shahar yoki viloyatga hokim tayinlamoqchi bo'lsalar, avvalo, to'qsobalardan tayinlanganlar [10].

Xonlikning ma'muriy-hududiy boshqaruv tizimida bek (hokim, voliy) ham (xonning o'rdasida) alohida o'rin egallagan bo'lishi kerak. Xon tomonidan tayinlangan hokim va qozi barcha vakolatlarga ega bo'lgan.

Lekin, ularning vakolatiga o'lim jazosini berish kirmagan. Bek o'rdasida ham xon saroyidagidek yuzlab amal va unvonlar joriy qilingan [11] bo'lib, ular mahalliy aholidan yig'iladigan soliq hamda to'lovlar hisobidan kun kechirgan. Beklikda sarkor aholidan soliq va to'lovlar yig'ish, sug'orish tizimi, hashar ishlariga mas'ul amaldor bo'lgan. Shuningdek, sarkor - xon amlokklarining boshlig'i, xonga tegishli ishxonalar, korxonalar hamda qurilish ishlariga boshchilik qilardi. Xonlikning ma'muriy boshqaruv tizimga oid muhim ma'lumotlarni biz tadqiqotchi olim A.L.Troiskaya tomonidan tuzilgan Qo'qon xonlari arxivining katoligiga kirgan hujjatlar asosida ham bilib olishimiz mumkin [12].

Manbalarda sarkorlik hisobidan katta mulklarga ega bo'lgan shaxslarni ko'plab uchraydi [13]. Sarkorlar xonga sadoqat bilan xizmat qilgan ekan, beshafqatliliigi bilan ham nom chiqargan. Tarixi Turkiston asarida Ulug'nahr anhorini qurilishida bo'lgan ayrim ko'ngilsiz voqeliklarni yoritib ketadi. Xususan, bu ariq qazish ishlariga xon sarkor Otaqul bahodirboshini bosh qilib qo'ydi. "... Boturboshi (Otaqul) bu mardikorlarga shu darajada qattiq azob berdiki, qari muysafidlar charchab dam olib turganini ko'rsa, yo eshitib qolsa, darhol kaltakka yotqizadur. Ittifoqan bir kishini oyog'iga bir mardikorni ketmoni tegib, oyog'ini majruh qilibdur, o'rnidan turolmasdan yig'lab qolibdur. ... boturboshi ko'zi tushib, otini yugurtirib kelub, baland ovoz bilan haqorat qilub, ... mo'ysafidning qancha tushintirishiga qaramasdan, oyog'ini tagiga yotquzib, ... mardikorlarga ustiga tuproq tortib ko'mib yuborishni buyaradi. So'ng ustiga tuproq tortib, bosib tashaladilar" [14].

Beklar xonning itoatkor vassallari bo'lib, mamlakatni boshqarishda uni qo'llab-quvvatlashlari, zarur bo'lganda unga yordam berishlari, uning hurmat-izzatini joyiga qo'yishlari, kerakli vaqtda o'z qo'shinlari bilan harbiy yurishlarda ishtirok etishlari va sovg'a-salomlar yuborib turishlari kerak bo'lgan. Masalan, Xudoyorxonning ukasi Sulton Murodbek o'z viloyati bo'ylab qilgan o'n oylik safari davomida unga 700 dan ortiq qo'y tortiq qilingan. Hadyalar berganlar orasida biylar, hammom egalari, oqsoqollar, aminlar, sarkorlar, jarchiboshilar, eshikog'alari, mirzoboshilar, qozilar, imomlar, mutavalliylar, xatiblar, qorilar, qo'rboshilar, qorovulbegilar, to'qsabolar, yuzboshilar, bahodirboshilar, shayx ul-islom va xo'jakalonning farzandlari, ellikboshilar, raislar, to'ralar, miroblar, tarxonlar, inoqlar, ponsodlar, miroxo'rlar va boshqa zodagonlar bo'lgan. Birgina Oyimchaxonning fotihasiga 259 bosh qo'y to'yona qilingan [15].

Umuman olganda viloyat boshliqlarini "bek" yoki "hokim"lar boshqargan deyilsa xato bo'lmaydi. Chunki ularning farqi sodda, ya'ni birida (bek) xon urug'i, ikkinchisida (hokim) oddiy fuqaro tayinlangan [16].

Viloyat hokimlarining oldida bir qator vazifalar turgan. Xususan, hukumat topshiriqlarini bajarishdan tashqari viloyatdagi qo'shinni ham boshqargan va sarkarda maqomini olagn. Chunki xonlikning asosiy harbiy kuchi viloyatlardan to'plangani manbalardan malum [17].

Bu xususida Tarixi Turkistonda Yuz va Qirq jamoasining beklaridan Muhammadrahim otaliq nomli sarkarda haqida ham ma'lumotlar mavjud. Jumladan, sarkarda "...o'z elativalari ila ittifoqlashib to'g'ri O'ratepa shahriga dohil bo'lub, shahar xalqini o'ziga tobe' aylab, Mug' arkiga Rajab qo'shbegiga odam yuborub Mug' arkidan chiqib ketmoqini talab" qilganligi eslab o'tiladi [18].

Ijtimoiy munosabatlarda viloyat hokimlari, (beklari) va sarkorlarning vazifasi ko'pincha xalqning turmush tarzini o'ylashdan ko'ra ko'proq xon xazinasini (shuningdek, o'z viloyati xazinasini ham) to'ldirish bilan o'vvora bo'lganlar. Bu holat oqibatda siyosiy vaziyatni chigallashtirib borgan. Xususan, XIX asrning 50-70 yillaridan boshlab xalq noroziligi va harakatlarini keltirib chiqarishga zamin bo'lgan. Lekin shunga qaramasdan ayrim viloyat hokimlari tashabbus bilan chiqib anhorlar, masjidular madrasalar qurilishiga bosh bo'lishgan. Jumladan T.Xudoyqulovning tadqiqotlarida Sayidqulbek haqida ayrim ma'lumotlar eslab o'tilgan. Ya'ni Qo'qon xoni Olimxon hukmronligi yillarida Farg'ona vodiysining janubiy hududlaridagi suv ta'minotini yaxshilash uchun So'x daryosidan oltita ariq qazilgan va hozirgi Oltiariqqa asos solingan. Bu davrda Namangan vohasida suv ta'minotini yaxshilash, yangi yerlarni o'zlashtirish uchun Namangan viloyati hokimi Sayidqulbek Norin daryosidan suv oluvchi Yangiariq kanalini qurish uchun ruxsat oladi [19].

Yoki 1813 yilida Namangan hokimi Qipchoq Mirza Sirdaryoning o'ng sohilida bo'sh yotgan yerlarni o'zlashtirish uchun Yangiariq kanalini uzaytirib Qirg'izqo'rg'ongacha yetkazgan. Uning uzaytirilishi Namangan shahrining janubiy qismida suv ta'minotini yaxshiladi. Yangidan sug'orilgan yerlarda makkajo'xori, bug'doy, arpa, poliz ekinlari ekilgan.

Shuningdek, davlat boshqaruvining murakkablikdan soddalashtirilganlikka qarab ketishi, ya'ni ma'lum bir mansab egaligi bitta mansabda mujassamlashib borishiga olib kelgan. Oqibati tashqi dushmanning faollashuvi va davlatning qulashiga sabab bo'lgan.

Xonlikdagi ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar tarixiga e'tibor qaratsa soliq tizimi bevosita mahalliy boshqaruvga bog'liq edi. Chunki mamlakat aholisidan yig'iladigan soliqlarning asosiy qismi viloyat va sarkorliklardan olinar edi. Bu borada Sh.Vohidov, H.Boboekov, B.Eshov, Sh.Mahmudov va T.Xudoyqulovlar kabi bir qator tadqiqotchi olimlarning asarlarida ma'lum bir tahlil va xulosalar beriladi. Jumladan, xonlikning soliq tizimida faoliyat yuritadigan mansabdorlar sarkor (yoki mirzaboshi), amlokdor, mirzolaridan iborat bo'lib, ularga mahalliy boshqaruvdagi ariq oqsoqoli, mirob, amin va oqsoqollar ham yordam berar edi. Qo'qon xonligi soliq tizimi tepasida sarkorlar turgan bo'lib, ular har bir viloyatda ish yuritishgan. Sarkor amlokdorlar va soliq yig'uvchi mirzolar faoliyatini nazorat qilish bilan bir qatorda, soliq yig'ish jarayonida o'zi ham faol ishtirok etgan. Beklikda sarkor aholidan soliq va to'lovlar yig'ish, sug'orish tizimi, hashar ishlariga mas'ul amaldor bo'lgan. Manbalarda sarkorlik hisobidan katta mulklarga ega bo'lgan shaxslarni ko'plab uchratish mumkin. Yoki Toshkent hokimining ikkita o'rinbosari bo'lib, biri soliqlarni yig'ish va fuqarolik ishlari bilan shug'ullangan sarkor bo'lib, ikkinchisi qo'shin ishlariga boshchilik qilgan botirboshi edi degan ma'lumotlar qayd etiladi [20].

Xonlikda xirojni yig'ish shahar begi tomonidan sarkorga topshirilgap. Bu mansabga tayinlangandan keyin sarkor o'ziga yordamchilar qilib miroblardan yollar edi. Yordamchilar soni shaharga tegishli yerlar nechta qismga bo'linganligidan kelib chiqilgan. Har bir shunday qismni ariq oqsoqoli boshqarar edi. Bahorgi ish mavsumi boshlanishi bilanoq sarkor har bir qismga bittadan mirobni yuborardi. U esa yoz davomida ekin yerlarini va egalarini aniqlab, ro'yxatga olishi lozim edi. Hosilni yig'shi davri kelganda har bir qismga bittadan mulla yuborilgan. Uning kelishi bilan oqsoqol, mulla va mirob bir komissiyani tuzib, xiroj ro'yxatini tuzar edi. Ular har bir g'alla hosilini o'lchovdan o'tkazib, soliq miqdorini aniqlab, ro'yxatga kiritishgan. Sarkor bu ro'yxatni aholidan surshtirib bo'lgach, bek huzuriga borib, uni tasdiqlash uchun topshirgan [21].

Viloyat hokimlarining soliq siyosati borasida xon tomonidan berilgan ayrim vakolatlari ham bo'lgan. Ular mansabdor shaxslarni soliqdan ozod eta olgan [22].

Tadqiqotchi olim R.Nabievning ta'kidlashicha xon soliq ishlaridan tashqari boshqa muhim masalalar yuzasidan ham sarkorlarga murojaat etgan [23].

Viloyat hokimlariga xiroj va tanobona soliqlarini olish huquqi berilgan edi. Xudoyorxonning oxirgi davrlarida xon xazinasiga har yili bir yarim million rublga teng soliq tushib turgan [24].

Savdo karvonlaridan esa soliqlarni viloyat hokimi yoki uning vakili olgan.

Shuningdek, 1831 yilda Muhammad Alixon tomonidan yangi unvon joriy qilinadi. Bu beklarbegi unvoni bo'lib, u faqat Toshkent viloyati hokimiga berilgan. Ushbu mansabdor bir qator imtiyozlarga ega bo'lgan, jumladan, unga xonlikning shimoliy hududlaridagi ma'muriy birliklar ustidan nazorat qilish vazifasi topshirilgan. Beklarbegi lavozimiga, odatda, xonning qarindosh-urug'lari tayinlanar edi. Beklarbegining asosiy vazifasi o'z urug'idan yig'iladigan soliqlarning to'g'ri yig'ilishini tekshirib turish va ularni to'la ravishda xazinaga topshirish ustidan nazorat qilishdir. Xon farmonlarini amalga oshirish, tegishli masalalarni biy, otaliqlar, oqsoqollar kengashi bilan kelishib, hal qilishdan iborat bo'lgan.

Sh.Vohidovning ta'biricha bu unvon xonning vorisiga yoki ba'zi viloyatning hokimiga berilgan. Beklarbegi orasida Isfara ve Chorko'h hokimi Sotiboldi va Toshkent vakili Lashkar beklarbegilari mashhur bo'lgan.

Xonlik tarixida ma'lumki, Toshkent Olimxon tomonidan bosib olingach, unga 1809/1810 yillarda Sayyid Alibek parvonachi, 1810 yildan Olimxonning o'g'li Shohruhbek, 1816-1819/20 yillarda Lashkar beklarbegi ismi bilan tanilgan G'ulomshoh Chatroriy hokim bo'lgan.

Manbalardan ma'lumki, 1819/20-1823 yillarda Toshkentni ba'zi tanaffuslar bilan Abdullabek (Abdullohxon) ibn Umarxon, amalda esa yuqorida ismi tilga olingan, Lashkar beklarbegi boshqargan. Bu muddat oralig'ida, avval Abdullabek, 1820 yilning 10 oyi davomida Karimquli mehtar, so'ngra 10 oy Isabek "jinni" laqabli kishi, keyin 1823 yilgacha yana Abdullabek Toshkent xokimi bo'lgan. Abdullabekni Muhammadalixon o'ldirgach, 1835 yilgacha Lashkar beklarbegining o'zi yana shahar va Dashti Qipchoqqa voliy bo'lgan.

G'ulomshoh Chatroriyga avval qo'shbegi, keyinchalik Lashkar beklarbegi unvoni berilgan bo'lib, u tanaffuslar bilan 1842 yilgacha Toshkent mulki va Dashti Qipchoqni idora qilgan. Demak bejiz emaski, Lashkar (qushbegi) beklarbegi Toshkent va Dashti qipchoq mulkida 1810 yildan 1841 yilgacha hokim bo'lib, juda oqil va odil sanalgan. Hattoki mirzolikini uning davrida boshlagan «Xulosat ul-ahvol» asarining muallifi Abu Ubaydullo Muhammad binni Sultonxo'ja (Eshonxo'ja Qori Toshkandiy) Lashkar beklarbegini samimiyat bilan eslaydi. G'ulomshoh Chatroriyning hukmronlik davri Muhammad Hakimxon, Muhammad Solihxo'ja Toshkandiy, Abu Ubaydullo Toshkandiy va boshqa qo'qonlik muarrixlarning asarlarida keng yoritilgan [25].

Qo'qon xoni Muhammadalixon (1822-1842) o'z hukmronligining oxirgi yilida, xonlikdagi ichki nizolar sabab Lashkar beklarbegini Toshkent va Dashti Qipchoq hokimligidan olib, 1841 yilning dekabr – 1842 yil may oylari davomida Toshkent mulkini boshqarishni ukasi Sulton Mahmudxonga topshirgan. Ammo, Muhammadalixon vujudga kelgan aholi noroziligini tinchitish uchun 1842 yilning boshlarida Marg'ilonda hokim bo'lib turgan Lashkar beklarbegini yana qayta Toshkentga hokim etib tayinlashga majbur bo'lgan. Lashkar beklarbegi Toshkentga kelgach, Qo'qon itoatidan chiqqan ko'chmanchi aholiga qarshi qo'shin tortib, Pishpak qal'asiga borgan va qal'a hokimi Yodgorbek bilan til biriktirib, elatiya oqsoqollari bilan bitim tuzishga hamda shu o'lkani qayta Toshkent itoatiga kiritishga muvaffaq bo'lgan [26]. 1842 yilda Buxoro amiri Qo'qon xonligini bosib olganidan so'ng [27], Toshkentga amir Nasrullo nomidan Muhammad Sharif otaliq hokim etib tayinlangan. U Buxoro amirining homiyligidan foydalanib, Qo'qonga qarshilik ko'rsata boshlagan. Xo'jandni bosib olish maqsadida uni qirq kun qamal qilgan. Abu Ubaydullo Toshkandiy Xo'jandning talon-toroj qilinishini «Xulosat ul – ahvol» asarida afsus bilan qayd etgan [28].

Shuningdek asarda Mallaxon davrida Toshkentga ma'lum bir vaqt va qisqa muddatda hokimlik qilgan shaxslar haqida ham batafsil ma'lumotlar berib o'tadi. Jumladan, O'tabbiy qo'shbegi qipchoq, undan keyin 7-8 oy Muhammad Muso parvonachi turk, so'ng 1859-1860 yillarda 10 oy Rustambek dodxoh Qozoqbiy oqsoqol Toshkandiy o'g'li, 1860-1861 yillarda Qanoatshoh otaliq Qorateginiy, 1861 yilda yana Rustambek dodxoh Qozoqbiy oqsoqol Toshkandiy o'g'li Toshkentda hokim bo'lgan. 1862 yilda Mallaxonning o'limidan so'ng Xudoyorxon Toshkent va Dashti Qipchoq mulkini ukasi Sulton Murodbekka bergan. U Toshkentni boshqarish uchun o'z o'rniga botirboshisi Do'stmuhammadni, 1863 yilning yozidan Niyozali qo'shbegi Shahrisabziyni yuborgan. 1863 yilning iyul-sentyabrida Shodmonxo'ja Toshkandiy parvonachi\qo'shbegi ikkinchi bor, so'ngra Normuhammad parvonachi, 1864 yilining avgust - dekabrda Mirzo Ahmad parvonachi\qo'shbegi ikkinchi bor, 1864 yil dekabr 1865 yil may oylarida Qo'sh dodxoh\parvonachi qipchoq Toshkentda hokim bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, XIX asrning birinchi yarmida, ya'ni podsho Rossiyasi bosqiniga qadar Qo'qon xonligining hududlari kengaygan va aholisining soni o'sgan. Bu esa ma'muriy jihatdan xolik tarkibiga kirgan viloyatlarning bir tomondan ishlab chiqarish ya'ni dehqonchilik va hunarmandchiligini o'sishiga ta'sir qilsa, ikkinchi tomondan tashqi dushmanlarning e'tiborini tortib kelgan. Shuningdek, o'z nufuziga ega bo'lgan ayrim viloyat hokimlarining markaziy hokimiyatga nisbatan bo'ysunmaslik siyosatidan borishiga ham sababchi bo'lgan. Chunki ishlab chiqarishdan tushgan daromadning xonlik xazinasiga yuborilishi kerak bo'lgan ulish sun'iy ravshda kamaytirib borilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Қаранг: Туркестанские ведомости. 1876. – № 13.
2. Якобжанов Ж. Ўзбекистоннинг замонавий тадқиқотларида Қўқон хонлиги давлатчилиги масаласи. (тарихшунослик таҳлили). Тарих фан.бўйича фалсафа. док. дисс. – Тошкент. 2023. – 153 бет: Махмудов Ш. Қўқон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фан.ном. дисс... – Тошкент. 2007. – Б. 97-100.
3. Кун А. Некоторые сведения о Ферганской долине. // Туркестанский сборник. – Т. 117. – С. 169.
4. Махмудов Ш. Қўқон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фан.ном. дисс... – Тошкент. 2007. – Б. 97-100.
5. Қаранг: Бейсембиев Т.К. Тарихи Шахрухи как исторический источник. Алма-Ата.: Наука, 1987. – С. 150–152.
6. Қўшбеги – қўш, қўшин беги, қўмондони маъносида. Олий ҳарбий унвон.
7. Худойкулов Т. XIX асрда Қўқон хонлигининг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти. ... – Б. 67: Муҳаммад Ҳақимхон. Мунтахаб ут-таворих. II. – Б. 28-429.
8. Мирзоолим Мушриф. Ансоб ус-салотин ва таворих ул-ҳавоқин / Нашрга тайёрловчилар А.Матғозиев, М.Усмонова. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995. – 128 б.; Мулло Мирзо Олим бин Мирзо Раҳим Тошкандий. Ансоб ус-салотин ва таворих ул-ҳавоқин. ЎЗР ФА ШИ қўлёзма № 1314. – 179 в.
9. Худоёрхонзода. Анжу мат-таворих. (Тарих юлдузлари). Нашрга тайёрловчилар. Ҳ. Н. Бобобеков, И. Сулаймонов, Ш. Воҳидов, –Т.: «Fan va texnologiya», 2014, 348 бет.
10. Махмудов Ш. Қўқон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фан.ном. дисс... – Тошкент. 2007. – Б. 100.: Болжувоний Муҳаммад Али. Тарихи Нофейи. – Т.: Академия, 2001. – Б. 23.
11. Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. – Б. 6 – 21.
12. Троицкая А.Л. Каталог архива Кокандских ханов XIX века. – М.: Наука, 1968.; Ўша муаллиф. Материалы по истории Кокандского ханства XIX в. – М.: Наука, 1969.
13. Бу ҳақда қаранг: Набиев Р.Н. Из истории Кокандского ханства. – С. 104.
14. Мирзо Олим махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. – Тошкент. Янги аср авлоди. 2009. – Б. 35. Араб ёзувидан таъдил қилувчи, Ш.Воҳидов, Р. Холиқова
15. ЎЗР МДА. 1043- фонд, 1-рўйхат, 2418-иш, 1 вар. Яна қаранг: Троицкая А.Л. Каталог архива Кокандских ханов XIX века. – Москва: Наука, 1968. – С. 342 – 343.
16. Саттархан Абдул-Гафаров. Краткий очерк внутреннего состояния Кокандского ханства перед завоеванием его русскими // Туркестанские ведомости, 1892. – № 26.
17. Кун А. Некоторые сведения о Ферганской долине // Туркестанский сборник. Т. 117. – С. 170.
18. Мирзо Олим махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон... – Б. 88.
19. Худойкулов Т. XIX асрда Қўқон хонлигининг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти. ... – Б. 67: Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии. (XVI – середина XIX в.в.). – Москва: 1958. – С. 19-20.
20. Махмудов Ш. Қўқон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими. ... – Б. 111: Худойкулов Т. Марказий Осиё давлатларининг бошқарув тарихи. (марказий, маҳаллий, ҳарбий, диний ҳокимият (XVIII–XX аср бошлари)). Тарих фанлари доктори дисс. Қарши. 2022. – Б. 113.

21. Бобоеков Х. Қўқон хонлиги тарихи. ... – Б. 127.
22. ЎзР ДА, Фонд И-1043, оп. 1, д. 1287.
23. Набиев Р. Из истории Кокандского ханства (феодалное хозяйство Худаярхана). – Т.: Фан, 1973.... – С. 230.
24. Бобоеков Х. Қўқон хонлиги тарихи. ... – Б. 126.
25. Қаранг: Султонов Ў.А. Муҳаммад Солиххўжа ва унинг «Тарихи жадидаи Тошканд» асари. – Б. 92-113.
26. Худойқулов Т. XIX асрда Қўқон хонлигининг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти. ... – Б. 60: Яна қаранг: Абу Убайдуллоҳ Тошкандий. Хулосат ул-аҳвол. 82<sup>а</sup>-87<sup>а</sup> вар.
27. Тожири Хужандӣ. Ғароибӣ сипоҳ. 23<sup>б</sup>-29<sup>б</sup> вар.
28. Абу Убайдуллоҳ Тошкандий. Хулосат ул-аҳвол. 82<sup>а</sup>-87<sup>а</sup> вар.